

## **O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raising korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha**

### **MUROJAATI**

Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” maqsadi qo‘yilgan (84-maqsad). Shu bilan birga, mamlakatimizda so‘ngi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasida “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”, deb ta‘kidlab, jamiyatni “halollik vaksinasi bilan emlash” zaruriyati haqida aytib o‘tdilar. Bu illatning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lishimiz, unga nisbatan barchamiz birdek kurashishimiz, yoshlarga bu illatning zararlari haqida yoshlikdan singdirib bormog‘imiz shart.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

So‘ngi yillarda bu sohadagi normativ-huquqiy baza tizimli ravishda takomillashtirib borilmoqda. 2017-yil 3-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun imzolandi.

2019-yil 27-mayda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi tasdiqlandi. Dasturda davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlikni belgilash; affillangan shaxslarning xaridlarda qatnashishlariga cheklovlar belgilash; barcha davlat tenderlarini qamrab olish uchun mahsulot yetkazib beruvchilarning hamma foydalana oladigan yagona reyestrini yuritish; davlat xaridlari bo‘yicha axborotning oshkoraligi va erkinligini oshirish kabi chora-tadbirlar belgilandi. Ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirish, jumladan: korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” (compliance control) tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyunda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va

boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qaroriga muvofiq Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillar belgilangan. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish uchun Qo'mita markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlarining yuqori axloqiy me'yorlarga sodiqligini, shuningdek, Qo'mita tizimi xodimlari tomonidan o'z faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymasliklari uchun samarali tizim shakllantirgan.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan ushbu illatga qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar hamda korrupsiyani oldini olish bo'yicha ish rejasi ishlab chiqilgan. Qo'mita yurtboshimiz Murojaatnomada qayd etganlaridek, barcha sa'y-harakatlarini korrupsiyaga qarshi profilaktika ishlariga jiddiy e'tibor qaratib, xodimlarni halollikka rioya qilish bo'yicha qat'iy tartib o'rnatgan.

Jumladan, tizimda korrupsiya xavfini baholab borish, xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi murossasiz kurash olib borish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borish, ularni ichki me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirib, ogohligini oshirish, informatsion texnologiyalarni qo'llash orqali samarali nazoratni o'rnatish bo'yicha jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Qo'mita markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalari korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Qo'mitaning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalarida korrupsiyani tubdan yo'qotishga erishish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish;

Qo'mitaning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalari faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyani oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash.

Qo'mitaning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalari xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va/yoki Qo'mita manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik va halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holda o'zlarining xizmat mavqeidan va/yoki Qo'mitaning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalarining mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz darkor. Buning uchun esa shaxsning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllangan bo‘lishi kerak. Shundagina biz jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlashga, fuqarolarning qonun va davlat idoralariga ishonchini mustahkamlash, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirishga erishamiz.

Biz jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzluksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tafakkurni rivojlantirmas ekanmiz korrupsiyaga qarshi kurashning har qanday vositasi samarasiz bo‘lib qolaveradi.

Korrupsiyaga befarqlik bilan qarash uning ildiz otishiga sabab bo‘ladi. Men sohada ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlash, korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro andozalarga javob beradigan islohotlarni bundan buyon ham qat‘iy davom ettirish tarafdoriman va Sizlarni ham bunga amal qilishingiz ustuvor maqsad hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, uning hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishda birinchi navbatda, fuqarolar faolligini va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Qo‘mitaning markaziy apparati, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalari xodimlari va boshqa shaxslar, agar ular Qo‘mita tizimi xodimlari xatti-harakatlarining qonuniyligi va/yoki odob-axloqqa muvofiqligi to‘g‘risida shubha tug‘ilsa, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etilishiga gumon yoki sodir etilganligi faktlari bo‘lsa, ular bu haqda Qo‘mitaning foydalanish mumkin bo‘lgan aloqa kanallari orqali xabar berishlari mumkin.


Qo‘mitaning markaziy apparati, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalari o‘z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbuzarlik to‘g‘risida ishonchli ma‘lumot bergan shaxsning maxfiyligini ta‘minlaydilar (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

Qo‘mita barcha fuqarolar va xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashga chaqirib, korrupsiya bilan bog‘liq holatlar kuzatilgan taqdirda o‘z ariza va shikoyatlarini “[anticorruption@antimon.gov.uz](mailto:anticorruption@antimon.gov.uz)” elektron pochtaga yuborishi yoki “(071) 207-49-00” ishonch telefoniga murojaat qilishlarini so‘rab qoladi.

Korrupsiya illati har qanday davlat va jamiyatni rivojiga putur yetkazadi. Korrupsiyaga barham bermas ekanmiz, hech qachon ko‘zlagan maqsadimizga yeta olmaymiz, rivojlanmaymiz. Shundan kelib chiqib, tizim xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi yalpi murosasiz kurash e‘lon qilishni taklif qilaman.

Tizimda mehnat qilayotganlarni yana bir bor halollik, xolislikni ta‘minlashga, adolat va haqiqat yo‘lida qat‘iyatli bo‘lishga chaqiraman. Jamiyatdagi salbiy illatlarga loqayd munosabatda bo‘lmasak, birgalikda kurashsak, albatta, yengishimizga ishonaman. Zero har qanday yuksak ahloq va ma‘naviyat hukm surgan davlat yanada obod va farovon bo‘ladi.

Rais



Sh. Sharaxmetov